

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi 2024-yil 22-aprel kuni o'tkaziladi

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/corporate/calendar/meeting-20240422>

"O'ZKIMYOSANOAT" AKSIYADORLIK JAMIYATI AKSIYADORLARI DIQQATIGA!

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi 2024-yil 22-aprel kuni soat 17:00 da Toshkent shahri Navoiy ko'chasi, 38-uy manzilida joylashgan jamiyatning ma'muriy binosida o'tkaziladi.

KUN TARTIBI:

- "O'zkimyosanoat" AJ aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi sanoq komissiyasi a'zolari soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash.
- "O'zkimyosanoat" AJ aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash.
- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-oktabrdagi PF-169-son Farmoniga asosan "Dehqonobod kaliy zavodi" AJ ustav kapitalidagi "O'zkimyosanoat" AJga tegishli 100 foiz aksiya paketini Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga o'tkazish bilan bog'liq yirik bitimni ko'rib chiqish.
- "O'zkimyosanoat" AJning yangi tahrirdagi ustavini tasdiqlash.
- "O'zkimyosanoat" AJning 2023-yil moliya-xo'jalik faoliyati yakunlarini auditorlik faoliyatining milliy standartiga muvofiq majburiy auditorlik tekshiruvidan o'tkazish uchun auditorlik tashkilotini, shuningdek, ushbu tashkilotning xizmatlariga to'lanadigan eng ko'p haq miqdorini belgilash.

Umumiy yig'ilishda qatnashish huquqiga ega aksiyadorlar ro'yxati 2024-yil 16-aprel holatiga shakllantirilgan aksiyadorlar reestriga asosan tuziladi.

Umumiy yig'ilish qatnashchilarini ro'yxatga olish 2024-yil 22-aprel kuni soat 16:00 da boshlanib, soat 17:00 gacha davom etadi.

Umumiy yig'ilishda qatnashish uchun aksiyadorlar o'zi bilan pasport, aksiyadorlar vakillari esa - O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan ishonchnoma bilan kelishlari so'raladi.

Umumiy yig'ilishni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda aksiyadorlarga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborot (materiallar) bilan tanishish uchun quyidagi manzil va telefon raqamlariga murojaat qilishingiz mumkin: Toshkent shahri Navoiy ko'chasi, 38-uy, telefon: +(99878) 140-74-97, 140-74-98.

"O'zkimyosanoat" AJ kuzatuv kyengashi